



## BOLALARDA IQTISODIY-EKO TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA STEAM INTEGRATSIYASINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

**Boltayeva Nasiba Ilhom qizi**

*BuxDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedrası mustaqil  
tadqiqotchisi, Buxoro innovatsiyalar universiteti  
o'qituvchisi. Tel: +998912402797*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarda iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy bilimlar, ekologik tarbiya hamda tejamkorlikka oid bilim va ko'nikmalarni STEAM texnologiyasi asosida shakllantirishning bugungi kundagi dolzarbligi yoritib berilgan. Shuningdek, STEAM texnologiyasining har bir o'sib kelayotgan yosh avlod hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, ushbu yo'nalishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga iqtisodiy tarbiyani STEAM yondashuvi bilan uyg'unlashtirish, ularni amaliy faoliyat jarayonida iqtisodiy tafakkurga yo'naltirish bo'yicha tavsiya va takliflar ham bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** экономическое образование, эко, STEAM, интеграция, общество, воспитание, принцип.

**Annotation:** This article highlights the current relevance of forming knowledge and skills related to economic education, economic knowledge, environmental education and thrift in preschoolers based on STEAM technology. It also provides information on the role and importance of STEAM technology in the life of each growing young generation, reforms and measures being implemented in this direction in our country. In addition, recommendations and suggestions are provided on combining economic education with the STEAM approach for preschoolers in preschool educational organizations, and directing them to economic thinking in the process of practical activities.

**Keywords:** economic education, STEAM, integration, society, education, principle.

**Абстрактный:** В данной статье освещается актуальность формирования знаний и навыков в области экономического образования, экономических знаний, экологического образования и бережливости у детей дошкольного возраста на основе STEAM-технологий. Также представлена информация о роли и важности STEAM-технологий в жизни каждого подрастающего поколения, а также о реформах и мерах, реализуемых в этом направлении в нашей стране. Кроме того, приводятся рекомендации и предложения по сочетанию экономического образования с STEAM-подходом для детей дошкольного

возраста в дошкольных образовательных учреждениях и по формированию у них экономического мышления в процессе практической деятельности.

**Ключевые слова:** экономическое образование, STEAM, интеграция, общество, воспитание, принцип.

### **Kirish:**

Bugungi kunda Maktabgacha ta'lim bosqichidagi bolalarning shaxsiy, kognitiv va ijodiy rivojlanishi pedagogik jarayonning fundamental komponentlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim amaliyotida bolalarda kreativ tafakkur, tanqidiy mulohaza va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik faoliyatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. So'nggi yillarda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyalari pedagogik nazariya va amaliyotda keng tatbiq etilmoqda. Ushbu integrativ yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarga turli fanlararo bilimlarni uyg'unlashtirish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkur qobiliyatlarini tizimli ravishda rivojlantirish imkonini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish va bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash vazifalari belgilab qo'yilgan.

STEAM metodikasi bolalarga nafaqat fan va texnologiya sohalaridagi fundamental tushunchalarni yetkazish, balki muammolarni aniqlash va strategik yechimlar ishlab chiqish, eksperimental faoliyatni tashkil etish, shuningdek innovatsion fikrlash va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, STEAM pedagogikasi bolalarning kompleks rivojlanishida markaziy o'rin tutib, ularni kelajakdagi ilmiy, ijodiy va amaliy faoliyatga tayyorlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>.

Iqtisodiy tarbiya —tarbiyalanuvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga qaratilgan, uyushgan pedagogik faoliyat bo'lib, maxsus o'ylangan ish tizimidir. Bu jarayon bolalarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, fidoyilik kabi xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy-ekologik tafakkurni shakllantirishda STEAM texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va samarali integratsiya usullarini ishlab chiqishdir. Tadqiqot orqali bolalarga resurslarni tejash, ekologik madaniyatni rivojlantirish, innovatsion va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini STEAM yondashuvi yordamida qanday tizimli ravishda o'rgatish mumkinligi o'rganiladi.

### **ASOSIY QISM**

STEAM integratsiyasi orqali bolalar quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

➤ Iqtisodiy tushunchalarni amaliy o'rganish – bolalar mablag'ni tejash, resurslarni oqilona ishlatish, xarajat va foyda tushunchalari bilan tanishadi. Masalan, o'yinlar orqali byudjetni rejalashtirish yoki materiallarni tejash bilan bog'liq loyihalarni bajarish.

➤ Ekologik mas'uliyatni rivojlantirish – tabiatni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish va resurslarni qayta ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar

<sup>1</sup> RaxmonovaGulruxUbaydullayevna va boshqalar. Ilm fan xabarnomasi, science bulletin, вестник науки.

hosil bo‘ladi. Eksperimentlar, mini-loyihalar va vizual materiallar orqali bolalar ekologik bilimlarni mustahkamlaydi.

➤ Tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish – STEAM yondashuvi bolalarni muammolarni aniqlash, yechimlarni izlash va eksperimentlar o‘tkazish jarayoniga jalb qiladi. Bu ularning mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

➤ Integrativ bilimlarni qo‘llash – matematik, ilmiy va texnologik tushunchalarni real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish orqali bolalar iqtisodiy-ekologik vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Ekologik madaniyat va ijtimoiy fikrlar ekologik madaniyatning yetukligi, ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvorni o‘zgartirishida muhim rol o‘ynadi. Odamlar ekologik muammolar haqida ko‘proq tushuncha va mas’uliyatni his qilganlarida, ular “yashil” iqtisodiyotga ko‘maklashadigan faoliyatlarga ko‘proq jalb qilinadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik bilimni oshirish bilan yashovchi jamiyatning ekologik mas’uliyatini oshirish o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjuddir. “Yashil” iqtisodiyot barqaror taraqqiyotga yo‘llangan iqtisodiy model bo‘lib, uning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat<sup>2</sup>.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy-ekologik tafakkurni shakllantirishda quyidagi yo‘nalishlar muhim pedagogik imkoniyat sifatida ajralib turadi:

1. **Resurslardan oqilona foydalanish** – “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni kam sarf qilishni targ‘ib qiladi. Bolalar suv, energiya va boshqa resurslarni tejashni o‘rganib, ekologik madaniyatning boshlang‘ich ko‘nikmalarini egallaydi.

2. **Tabiiy resurslarni qayta tiklash** – quvvat va xom ashyo manbalarini qayta tiklash tushunchasi bolalarni resurslarni muhofaza qilishga rag‘batlantiradi. Bolalar o‘yin va amaliy faoliyat orqali daraxt ekish, o‘simliklar parvarishi kabi tadbirlarni amalga oshiradi.

3. **Tadbirkorlik va innovatsiyalar** – “yashil” iqtisodiyot ekologik texnologiyalar, innovatsiyalar va yangi biznes modellarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar esa chiqindilarni qayta ishlash yoki kichik ekologik loyihalar orqali ijodiy va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi.

4. **Ekologik madaniyat nazariy asoslari** – ekologik madaniyat odamlarning tabiatga bo‘lgan hurmatini shakllantiradi va ekologik prinsiplarni amalda qo‘llashga yordam beradi. Bu uchta asosiy komponentga ega:

**Ekologik bilim** – bolalar atrof-muhitdagi jarayonlar, muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini tushunadi. Masalan, chiqindilarni ajratish, suv va havo ifloslanishi, issiqxona gazlari muammolari.

**Qadriyatlar** – tabiat, resurslar va ijtimoiy masalalarga bo‘lgan hurmat va e’tibor, bolalarni ekologik faoliyatga jalb qiladi.

**Harakat** – ekologik madaniyatning maqsadi bolalarni amaliy faoliyatga jalb qilish, masalan, bog‘bonlik o‘yinlari, toza muhitni saqlash tadbirlari va jamiyat ichida ekologik loyihalarni amalga oshirishdir.

So‘nggi yillarda tarbiyalanuvchilar uchun moliyaviy va ekologik savodxonlik hayotiy zarur ko‘nikmalardan biri sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

<sup>2</sup> Do‘stov bahodir tashpo‘latovichinternational scientific and practical conference “environmental protection and scientific foundations of the “green” economy”, april 4-5, 2025

Butun dunyo pedagoglari iqtisod, moliya va resurslarni oqilona ishlatish bilan bog‘liq tushunchalarni bolajonlarga tushunarli, qiziqarli va uzoq muddatli xotirada saqlanadigan tarzda yetkazishning samarali yo‘llarini izlamoqda.

Murakkab iqtisodiy va ekologik tushunchalarni oson va qiziqarli qilib o‘rgatishda interaktiv, o‘yinga asoslangan ta‘lim usullari istiqbolli yondashuv sifatida alohida e‘tibor qozonmoqda. Interfaol o‘yinlar real hayotga yaqin vaziyatlar, masalan, resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish yoki ekologik loyihalar orqali moliyaviy qarorlar qabul qilish kabi vaziyatlarni taklif etadi. Bu bolalarning motivatsiyasini oshiradi, mashg‘ulotga qiziqishini kuchaytiradi va bilimlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Eng muhimi, bu o‘yinlar bolalarga xavfsiz muhitda moliyaviy va ekologik qarorlar qabul qilishni sinab ko‘rish va ularning oqibatlarini tushunish imkonini beradi. Shu tariqa, bolalar nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki ekologik ong va resurslarni oqilona boshqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

XULOSA: O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy va ekologik savodxonlikni maktabgacha ta‘lim tashkilotida STEAM yo‘nalishlari asosida pedagogik o‘yin texnologiyalari orqali shakllantirish va STEAM asosidagi loyiha faoliyatini tashkil etish zamonaviy ta‘limning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

STEAM yondashuvi bolalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan birga, ularni resurslarni tejash, atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabat va ekologik qarorlar qabul qilish bo‘yicha ham o‘rgatadi. Loyiha faoliyati orqali bolalar o‘rganish jarayonida faollashadi, axborotni qayta ishlash, egallagan bilimlarini mustahkamlash va ularni real hayotda, shu jumladan iqtisodiy va ekologik vaziyatlarda qo‘llashga intiladi.

Shu bilan birga, STEAM loyihalarining muvaffaqiyati uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish muhimdir. Bunga malakali kadrlar tayyorlash, uslubiy ta‘minotni yo‘lga qo‘yish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kiradi. Bularning barchasi bolalarda iqtisodiy-ekologik tafakkur, mas‘uliyatli qaror qabul qilish va barqaror rivojlanishga oid amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-158-son farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. Toshkent, 11-sentabr 2023.

Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna va boshqalar. (2023) Ilm fan xabarnomasi, science bulletin, вестник науки. Jurnal [1]

2. Islomova, N.A. (2020). Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi

3. Do‘stov Bahodir Tashpo‘latovich (2025). International scientific and practical conference “environmental protection and scientific foundations of the “green” economy”, april 4-5.

4. Mirmuhammedov, O. (2019). STEAM ta'limini tashkil etish metodikasi. Toshkent: Fan va Texnologiya

5. Tashkent State Pedagogical University (2022). Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi. Metodik qo‘llanma.

6. Miller, R. (2017). STEAM Education: A 21st Century Approach to Learning. Educational Review.